Akademik Ra’no Ubaydullayeva vafot etdi

O’zbekiston ilm-fani og’ir judolikka uchradi.

Mehnat iqtisodiyoti va mehnat resurslaridan foydalanish muammolari sohasida yetakchi olima, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Ubaydullayeva Ra’no Axatovna 84 yoshida vafot etdi.

Taniqli olima, mehribon ustoz, kamtarin inson Ubaydullayeva Ra’no Axatovnaning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

Marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan hamdardlik bildiramiz.